

Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchilari uchun

QOʻLLANMA

Mavzu: Halollik va toʻgʻrilik

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Sinf: 8-sinf

Dars maqsadi:

1. Oʻquvchilarga halollik va toʻgʻrilik tushunchalarining ahamiyatini tushuntirish.
 2. Yaxshi va yomon xatti-harakatlar oʻrtasidagi farqni aniqlash, pora berish va yomon amallarning huquqiy va axloqiy oqibatlarini tushuntirish.
 3. Imtihonlar va test sinovlarida pora berishning xavf va xatarlarini tushuntirish, toʻgʻrilikning hayotdagi oʻrnini anglatish. Oʻquvchilarni toʻgʻri qarorlar qabul qilishga yoʻnaltirish.
-

Kutilayotgan natijalar:

1. Oʻquvchilar halollik va toʻgʻrilik tushunchalari haqida bilimga ega boʻladilar va bu tamoyillarga amal qilishni oʻrganadilar.
 2. Oʻquvchilar yomon xatti-harakatlar va pora berishning oqibatlari haqida tushuncha hosil qiladilar.
 3. Oʻquvchilar imtihonlar va test sinovlarida halol yoʻllar bilan muvaffaqiyatga erishish muhimligini anglaydilar.
 4. Oʻquvchilar bahs-munozaralar va hayotiy vaziyatlar asosida mustaqil va toʻgʻri qaror qabul qilishni oʻrganadilar.
-

Metodlar:

- Suhbat
 - Blits-soʻrov
 - Hayotiy vaziyatlar (keys) asosida muhokama
 - Hikoya orqali tushuntirish
 - Bilimlarni mustahkamlash usullari
-

Foydalaniladigan materiallar:

- Taqdimot slaydlar
- Kartochkalar (savollar va vaziyatlar)

- Rasmlar (halollik va to‘g‘rilik mavzusida)
-

Dars qismlari:

1. Darsga kirish (5 daqiqa)

O‘qituvchi savollar beradi:

- “Halollik va to‘g‘rilik - bu hayotimizdagi muhim prinsiplardan biridir. Biz hayotda qanday yashashni istaymiz? To‘g‘rilikning hayotimizdagi ahamiyati qanday?”
 - “Halollikni qanday tushunasiz? Bu to‘g‘rilikka qanday bog‘liq?”
-

2. Mavzuni tushuntirish (10 daqiqa)

Tushuncha va ta’riflar:

- **Halollik:** rostgo‘ylik, adolat, axloq qoidalariga amal qilish.
- **To‘g‘rilik:** axloqiy va huquqiy jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilish.

Misol:

“Maktabda tushlik vaqtida qorningiz juda och. Pul topib oldingiz. Uni o‘z ehtiyojingga ishlatmay, qorovulga topshirdingiz. Bu sizning halollik va to‘g‘rilik tamoyiliga amal qilganingizni ko‘rsatadi.”

Savollar:

- “To‘g‘rilik bilan yashashning hayotimizdagi ahamiyati nimada?”
 - “Halol amal qilish bizga nima beradi?”
-

3. Yaxshi va yomon xatti-harakatlar (10 daqiqa)

Ta’riflar:

- **Yaxshi xatti-harakat:** insonning axloqiy to‘g‘riligini ko‘rsatadi.
- **Yomon xatti-harakat:** adolatga zid bo‘lib, jamiyatga zarar keltiradi.

Misol:

“Kimdir imtihonni halol topshirsa, u jamiyatda hurmatga sazovor bo‘ladi. Pora bilan topshirsa – bu salbiy oqibatlarga olib keladi.”

Savollar:

- “Yomon xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yish jamiyatga qanday ta’sir qiladi?”
-

4. Imtihon va test sinovlarida pora berish (10 daqiqa)

Ta’rif:

- Pora berish – adolatsizlikning namoyonidir, bu ota-onalar va yoshlarga yomon o‘rnak bo‘ladi.

Misol:

“Talaba bilim olish o‘rniga pora bersa, nafaqat hurmatini yo‘qotadi, balki o‘z imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi.”

Savollar:

- “Pora berish qanday oqibatlarga olib keladi?”
 - “Halol yo‘ldan qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?”
-

5. Hayotiy vaziyatlar (Keys) (10 daqiqa)**Keys 1:**

- Holat: Do‘stingiz testdan o‘tish uchun pora berishni taklif qiladi.
- Savollar: “Bu vaziyatda siz qanday harakat qilasiz? Oqibatlari nimalarga olib keladi?”

Keys 2:

- Holat: Vazifalarni bajargansiz, ammo boshqalar baho olish uchun muallim bilan til biriktiradi.
 - Savollar: “Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Muallim-o‘quvchi munosabatlarida qanday tamoyil bo‘lishi kerak?”
-

6. Blitz-so‘rov (3 daqiqa)**Savollar:**

- “To‘g‘rilik va halollik orasida qanday farq bor?”
 - “Pora berish qanday oqibatlarga olib keladi?”
 - “Imtihonlarda halol yo‘ldan muvaffaqiyatga erishishning ahamiyati nimada?”
 - “Jamiyatda halollik va to‘g‘rilik tamoyillari qanday rivojlanadi?”
-

7. Dars yakunlari (2 daqiqa)**Xulosa:**

- “Halollik va to‘g‘rilik – huquqiy va axloqiy tamoyillardir. Agar biz to‘g‘ri yo‘ldan yursak, jamiyatda adolatga hissa qo‘shamiz.”
- “Har bir harakatning oqibatini o‘ylab ish tutsak, jamiyatda ishonchli va hurmatli inson bo‘lamiz.”

